


## 2019-yil 1-sentyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaoshirilmoqda.O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Respublikamizda 2870 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1004 taga ko'pdir.

Natijada,ro'yxatdan o'tgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2876 ta (17,9 %)ga o'sgan hamda ularning umumiyl soni 18322 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentyabr holatiga 18322 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,3%ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,5 % savdo, 12,3 % sanoat, 11,8 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,1% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiysoni, birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sishs ur'ati, %	Jamiganisb atan, %
<b>Jami</b>	<b>15536</b>	<b>18322</b>	<b>117,9</b>	<b>100</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1943	2091	107,6	11,4
Sanoat	1665	2254	135,4	12,3
Qurilish	1629	2157	128,1	11,8
Savdo	3209	4125	128,5	22,5
Tashishvasaqlash	772	850	110,1	4,6
Yashashvaovqatlanis hbo'yichaxizmatlar	914	1129	123,5	6,2
Axborotvaaloqa	310	334	107,7	1,8
Sog'lqnisaqlashvajiti moiyxizmatlarko'rsatis h	282	350	124,1	1,9
Boshqaturlari	4812	5032	104,6	27,5

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5642 ta), To'rtko'l (1894 ta), Beruniy (1513 ta) va Amudaryo(1379 ta)tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtako'pir (325 ta), Mo'ynoq (380 ta) hamda Shumanay (450 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 17864 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2812 taga (18,7 %) o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 % savdo, 12,3 % sanoat, 11,9 % qurilish, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5560 ta), To'rtko'l (1797 ta), Beruniy (1482 ta) Amudaryo(1325 ta) va Ellikkala (1144 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (312 ta), Mo'ynoq (375 ta) hamda Shumanay (442 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalarvatashkilotlar  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


2019-yil yanvar-avgust oylarida 2870 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 53,8% ga o'sgan.

**Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalarva tashkilotlarning  
yillarkesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (852 ta), To'rtko'l (307 ta), Amudaryo (217 ta) va Beruniy (202 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (37 ta), Qanliko'l (74 ta) hamda Shumanay (77 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks etirgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo(993 ta), sanoat (566 ta), qurilish (449 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (204 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (57 ta), axborot va aloqa (55 ta) hamda tashish va saqlash (92 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1-sentyabr holatiga 14275 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 3115 ta, oilaviy korxonalar - 949 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 9907ta, unitary korxonalar – 131 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 28 ta va boshqalar 145 tani tashkil etgan.

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati  
cheklangan jamiyati




Xususiy  
korxona




Oilaviy  
korxona




Unitar  
korxona



Aksiyadorlik  
jamiyati



Boshqalar



### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 139 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga yoki 40,4 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokida korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Nukus shahrida (30 ta), Mo'ynoq (20 ta), Taxiatosh (10 ta), Qorauzak Kegeyli va Nukus (9 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari To'rtko'l va Xo'jayli (3 tadan) hamda Chimboy (4 ta) tumanlarida kuzatilgan.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 80 tasi qo'shma korxonalar, 59 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarningfaollikdarajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	139	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	6	4,3
Beruniy	8	5,8
Qorauzak	9	6,5
Kegeyli	9	6,5
Qongirot	6	4,3
Qonlikol	6	4,3
Muynoq	20	14,4
Nukus	9	6,5
Taxiatosh	10	7,2
Taxtakupir	6	4,3
Turtkul	3	2,1
Xujayli	3	2,1
Chimboy	4	2,9
Shumanay	5	3,6
Ellikqala	5	3,6
Nukus sh.	30	21,6

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 25 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgankorxonalarning asosiy qismi Nukus shahar (10 ta yoki jamidagi ulushi 40,0 %), Mo'ynoq tumanida (3 ta yoki 12,0%), Beruniy, Qorao'zak va To'rtko'l tumanlari (2 tadan yoki 8,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Amudaryo, Kegeyli, Qanliko'l, Taxiatosh, Shumanay va Ellikkala tumanlari (1 tadan yoki 4,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi -5 ta Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Turkmenistondon Respublikasi hamda Britaniyaning Virgininiya Orollari mamlakatlarida - 2 tadan, Niderlandiya Qirolligi va Turkiy Respublikasi -1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (6 ta), savdo (8 ta), qurilish (2 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (4 ta) faoliyatturlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlashva ijtimoiy xizmatlarda hamda tashishva saqlashda (1 tadan) tashkil etgan.


## 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichasoni, birlikda



### Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14200 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentyabr holatiga qaraganda 23,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4684 tasi (33,0 %) Nukus shahri, 1515 tasi (10,7 %) To'rtko'l, 1188 tasi (8,4 %) Beruniy hamda 1020 tasi (7,2 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rSATAYOTGANKICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING TUMANLAR KESIMIDA JAMIDAGI ULUSHI (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14200 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4008 tasi (28,2 %) - savdo, 2173 tasi (15,3 %) - sanoat, 2114 tasi (14,9 %) - qurilish, 1937 tasi (13,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1098 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 820 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 279 tasi (2,0 %) – axborotva aloqa sohasi, 248 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1523 tasi (10,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 2755 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 87,9 % oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichikkorxonava mikrofirmalar Nukus shahri (811 ta), To'rtko'l (296 ta), Amudaryo (215 ta) va Beruniytumanlari (187 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtako'pir (36 ta), Qanliko'l (73 ta), Shumanay (76 ta) hamda Qorao'zak (81 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (993 ta), sanoatda (566 ta), qurilishda (448 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (220 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (39 ta), axborot va aloqada (55 ta) hamda tashish va saqlashda (92 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentyabr holatiga 972 tani tashkil etib, ulardan 949 tasi yoki 97,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatanolganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi soni o'rtacha 60,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## **Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda**




## **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,4 % yoki 260 tasi sanoat, 25,5 % yoki 242 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,6 % yoki 252 tasi savdo, 6,5 % yoki 62 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 0,5 % yoki 5 tasi tashishva saqlash, 2,2 % yoki 21 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 10 tasi qurilish, 1,8 % yoki 17 tasi axborot va aloqa hamda 8,4 % yoki 80 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

## Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat, savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa qurilish hamda tashishva saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	<b>297</b>	<b>100</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	82	27,6
Beruniy	12	4,0
Qorauzak	1	0,4
Kegeyli	9	3,0
Qongirot	11	3,7
Qonlikol	19	6,4
Muynoq	8	2,7
Nukus	10	3,4
Taxiatosh	23	7,7
Taxtakupir	5	1,7
Turtkul	25	8,4
Xujayli	15	5,1
Chimboy	4	1,3
Shumanay	3	1,0
Ellikqala	19	6,4
Nukus sh.	51	17,2

2019-yil yanvar-avgust oylarida 297 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Amudaryo tumanida (82 ta), Nukus shahrida (51 ta), Taxiatsosh tumanida (23 ta) va To'rtko'l (25 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorao'zak (1 ta), Shumanay (3 ta) hamda Taxtako'pir (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,0 % yoki 86 tasi sanoat, 39,4 % yoki 117 tasi savdo, 16,5 % yoki 49 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 4,0 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 5 tasi qurilish, 1,4 % yoki 4 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 2,0 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 5,7 % yoki 17 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi.  
Tel.:71-230-82-23(24)**